

ТА'LIMDA MULOQOT XULQINING AHAMIYATI

Jovliyeva Yulduz Abdivasi qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-kurs talabasi
yulduzjovliyeva442@gmail.com

Аннотатсия

Ushbu maqolada muloqot xulqi tushunchasi tahlil qilinib, muloqot xulqining o'qituvchi faoliyatidagi ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: muloqot, muloqot xulqi, kommunikativlik, muomala

Muloqot xulqi inson ruhiy kayfiyatining muhim jihatlaridan biri bo'lib, u orqali har bir xalq va millatning o'y-fikri, yashash tarzi, turmushi, urf-odatlarini, an'analari va boshqa ijtimoiy jihatlari aks etadi.

O'qituvchining qaysi davrga, qaysi ijtimoiy sohaga oid ekanligi uning faqat nutqidan yoki qanday leksik birliklardan foydalanishi bilan emas, balki dunyoqarashi, o'zini tutishi, tashqi ko'rinishi, nutqining shakli (ritmi), talaffuz me'yori (ton) kabi o'ziga xos xususiyatlari, ya'ni ramziy ijtimoiy tomonlari bilan ham ajralib turadi. Bunday kuzatishlar jamiyatdagi mavjud ijtimoiy sohalarni baholash uchun xizmat qiladi.

O'qituvchilar muloqot xulqida davrga xos xarakter, dunyoqarash sezilib turishi bilan birga, ularning o'zaro muloqotlari mavzu va mazmun jihatdan boshqa ijtimoiy soha vakillarining o'zaro muloqotlaridan keskin farq qolib, quyidagilardan iborat bo'ladi:

- 1) kommunikativ aktda ijtimoiy vazifasiga ko'ra o'qituvchilar nutq uslubining qay biridan qay tarzda foydalanishni auditoriyaga qarab belgilaydi;
- 2) kommunikativlik ma'riifiy-ma'naviy mazmundan iborat bo'ladi;
- 3) auditoriya uchun namuna ekanligini sezgan holda axloqiy chegarada qolishga harakat qilinadi;
- 4) nasihat, maslahat, tavsiya yoki tanbeh, jazo berishda ota-onalarga o'xshaydi; auditoriyaga hukmronlik qiladi;
- 5) darsdan tashqari holatlarda ham o'qituvchi holatdan chiqib keta olmaydi.

Bularning barchasi o'qituvchi muloqot xulqi darajasini, ya'ni o'qituvchi muloqot xulqining funkcionallashuvini ko'rsatib beradi.

O'qituvchi muloqot xulqi o'quv jarayonini tashkil qilishda juda ahamiyatli. O'qituvchi nutqi izchil, ravon va o'quvchilarga tushunarli bo'lishi lozim. Agar muloqot xulqi yuqoridagi talablarga javob bermasa A.Qahorning „Adabiyot muallimi“ dagi Boqijon Baqoyevga o'xshab qolishlari hech gap emas.

„Adabiyot muallimi” hikoyasi bosh personaji Boqijon Baqoyev nodon, o‘ta madaniyatsiz bir kimsa. Hikoyada yozuvchi biron o‘rinda uni nodon, madaniyatsiz deb atamaydi, oshkora qoralamaydi. Personaj o‘zining nodon, madaniyatsizligini har qadamda xatti-harakatlari, fikrlash tarzi, gap-so‘zlari orqali o‘zi fosh etadi. Nafis, ya’ni badiiy adabiyot muallimi bo‘la turib jiyani, talaba Hamidaning Chexov va uning „Uyqu istagi” hikoyasi haqidagi oddiy savollariga tayinli javob berolmaydi, aslida u javob berishga qodir emas. Bu odamning fojiasi shundaki, aybini tan olgisi kelmaydi, o‘zini har bop bilan bilimdon qilib ko‘rsatishga urinadi, aravani quruq olib qochadi: uning xayolida, tilida bir-biriga qovushmagan nomlar, har xil atamalar, ilmiy tushunchalar... Uning fikrlash yo‘sini gap-so‘zlarida aniqlik, izchillik yo‘q, duch kelgan tomonga o‘tib ketaveradi. Yozuvchi hikoyani yakunlar ekan, savol beruvchi talaba qizning „g‘uvillab turgan boshida shundan boshqa hech narsa yo‘q edi”, deb yozadi: „praktikum, minimum, maksimum, Deterding, Stending, Shelling, Mering, Demping...”

Keyingi yillarda psixologiya fanida va hayotda kishilar orasidagi muomala jarayonini o‘rganish va boshqarishga qiziqish ko‘paymoqda. Ko‘pchilik psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, agar kishi o‘zining xulq-atvori va boshqalar bilan muomalasi ostida yotgan qonuniyatlar va tamoyillarni bilsa u hayotga munosabatini, boshqalarga bo‘lgan munosabatini keskin o‘zgartirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. „Muomala” psixologik kategoriya sifatida juda ko‘p o‘rganilgan bo‘lishiga qaramay, uni o‘rganish davom etmoqda. Bu muomalaning muhimligi va ko‘p qirraliligi bilan tushuntiriladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ta’lim jarayonida o‘qituvchi muloqot nutqi nihoyatda ahamiyatli. Bo‘lajak o‘qituvchilardan muloqot xulqini yaxshi egallash va uning talablariga javob bergan holda ish faoliyatlarini olib borish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Q.Mo‘ydinov „O‘qituvchi muloqot xulqining lingvokulturologik tadqiqi” nomzodlik dissertatsiyasi Toshkent 2016
2. A.Qahhor „Adabiyot muallimi” hikoyalar to‘plami Toshkent, Yangi asr avlodi 2019
3. A.G‘ulomov „Ona tili o‘qitish metodikasi” Toshkent 2012
4. www.ziyonet.uz